susiyatlarning milliy qadriyatlarimiz, kishilarimiz ruhiyati hamda tabiatga bo‘lgan munosabati shakllanishidagi o‘rni, tabiiy muhitning kishilik jamiyati taraqqiyotidagi ahamiyatini yoritib, yoshlarimizda ekologik tafakkurni shakllantirishda keng imkoniyatlarga ega.

Binobarin, maktab tabiiy geografiya va iqtisodiy geografiya kurslarida tabiiy resurslar va ulardan oqilona foydalanish masalalari o‘rganiladi. Ana shu masalalar mohiyatini o‘quvchilar ongiga singdirar ekanmiz, tabiat unsurlari bo‘lgan suv, tuproq, o‘simlik olamidan bemaqsad foydalanishni o‘tmishdagi ajdodlarimiz uvol hisoblaganliklarini, bu masala zardushtiylikning muqaddas kitobi hisoblangan “Avesto”da ham tilga olinganini, hatto bu tabiat ne’matlarini isrof qilganlar jazoga tortilganini aytish o‘rinlidir. Ushbi kitobda tabiatga munosabatning ikki jihati yoritiladi, biri tabiat unsurlarini muqaddaslashtirish bo‘lsa, ikkinchisi, insonning moddiy yaratuvchanligini ulug‘lashdir.[1] Bundan kelib chiqadiki, o‘sha davrlardayoq, inson va tabiat uyg‘unligi ekologik dunyoqarashni boyitishga xizmat qiluvchi qadriyat sifatida e’zozlangan ekan.

**Xulosa.** Mamlakatimiz ta’lim tizimidagi islohotlarning hozirgi bosqichida barcha fanlarda bo‘lgani kabi geografiya kurslarini o‘qitishda ekologik muammolarning tobora keskinlashib, global mazmun kasb etayotganligini, jamiyatimiz, millatimiz hayotida tabiatni asrashga yo‘naltirilgan tadbirlarning amalga oshirilayotganini turli misollar orqali asoslab berish o‘quvchi-yoshlarning ekologik tafakkurini shakllantirishda, ularning ekologik savodxonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Binobarin, insonni, eng avvalo, tafakkuri, aql-zakovati, ma’naviyati bilan boshqa jonzotlardan ajralib turadigan jihati, uning tabiatga munosabati, ya’ni uning ekologik bilimi va ekologik madaniyatidir, deyish mumkin.

Geografiya ta’limida o‘quvchi-yoshlarni tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar bilan qurollantirib, ularning umumiy dunyoqarshini kengaytirar ekanmiz, ularda ekologik tafakkurni shakllantirish, uni rivojlantirib, boyitib borish, har bir o‘quvchida jamiyat va tabiat hodisalariga sog‘lom tafakkur asosida munosabatda bo‘lish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish ta’limning ajralmas bir tarbiyaviy qimi bo‘lishi zarur. Zero, bu masalaga nafaqat bizning mintaqamizda, balki butun dunyoda jiddiy e’tibor qaratilayotganligi mazkur muammoning dolzarbligini ko‘rsatadi.

**Mamaziyoyeva Orzixon Odiljon qizi (Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti mustaqil izlanuvchisi; e-mail: sardorbekmamasidiqov@gmail.com)**

## YUQORI SINF O‘QUVCHILARINING GRAMMATIK KOMPETENSIYASINI KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada, grammatik kompetensiya chet tili (ingliz tili)ni o‘rganish jarayonida, lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda muhim rol o‘ynashi va kommunikativ yondashuv orqali grammatik kompetensiyani o‘rganuvchilarga yetkazib berish usullari, shuningdek, yuqori sinf o‘quvchilari uchun grammatik kompetensiyasini rivojlantirish va mustahkamlash uchun tajriba-sinovlaridan o‘tgan metodlar haqida batafsil yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *grammatika, kommunikativ yondashuv, yuqori sinf o‘quvchilari, metodika, induksiya.*

## МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ГРАММАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТАРШЕКЛАССНИКОВ НА ОСНОВЕ КОММУНИКАТИВНОГО ПОДХОДА

***Аннотация.*** *В этой статье подробно рассказывается о том, как грамматическая компетентность играет важную роль в процессе изучения иностранного языка (английского), в развитии лингвистической компетентности и о способах доведения грамматической компетентности до изучающих посредством коммуникативного подхода, а также о методах, прошедших экспериментальную проверку для развития и закрепления грамматической компетентности старшеклассников.*

***Ключевые слова:*** *грамматика, коммуникативный подход, старшеклассники, методика, индукция.*

## METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF GRAMMATICAL COMPETENCE OF UPPER-CLASS STUDENTS ON THE BASIS OF A COMMUNICATIVE APPROACH

***Annotation.*** *In this article, grammatical competence is covered in detail in the process of learning a foreign language (English), the important role-playing in the development of linguistic competence and the methods of delivering grammatical competence to learners through a communicative approach, as well*

[1] Авесто. “Шарқ”, 2001, 3-бет.

*as methods that have passed experimental tests for the development and strengthening of grammatical competence for upperclassmen.*

***Key words:*** *grammar, communicative approach, upperclassmen, methodology, induction.*

**Kirish.** Bugungi kunda yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish bilan bir qatorda, ularni ma'naviy va ruhiy jihatdan kuchli qilib tarbiyalash, ularni ham ma'nan, ham bilim jihatdan kuchli qilib tarbiyalash bizning asosiy maqsadimiz hisoblanadi. Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan texnika asrimizda, zamonaviy bilimlar bilan birga chet tillarini o'rgatish ham biz, pedagoglarning vazifamiz sanaladi. Chet tilida erkin muloqot qila olishlari uchun turli xil metodlardan foydalanib, yosh avlodga qoniqarli bilim berish dolzarb hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Jahon pedagogik ta'limida grammatikani o'qitish, grammatik qobiliyat va kompetensiyalarga daxldor muammolarga bag'ishlangan ko'pgina ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Masalan, N.Chomskiy, A.N.Shamanov, E.N.Passov, I.V.Chernaskaya kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida uchraydi. Bu ilmiy tadqiqotlarga, o'z navbatida, munosabatimizni bildirdik va ilmiy tajriba-sinovlar, shuningdek, maqola davomida ilmiy tadqiqot ma'lumotlaridan foydalandik.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqola umumqabul qilingan pedagogik metodlar – kuzatuvchanlik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, tajriba-sinov aniqlash tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, yuqori sinf o'quvchilarning grammatik kompetensiyasini kommunikativ yondashuv asosida rivojlantiruvchi metodlar va usullar o'rinli tadqiq etilgan.

**Tahlil va natijalar**. Inson yashar ekan, uning o'z vatani, tili va dini mavjud. Til ijtimoiy hodisa hisoblanib, insonlar bilan o'zaro muloqot natijasida rivojlanadi, har bir tilning o'ziga xos bo'lgan qat'iy belgilab qo'yilgan qonun-qoidalari mavjud bo'lib, shu jihatlari bilan bir-biriga o'xshaydi yoki farq qiladi. Bu qonuniyatlar esa grammatika deb ataladi. Grammatikani lisoniy kompetensiyaning rivoji uchun yoki til o'rganish jarayonida qanchalar kerakligi haqida turli xil manbalarda olimlarimiz turli xil fikr yuritganlar. Tadqiqotimiz avvalida biz ham bu turli bildirilgaan gaplargaa munosabatimizni aniqlashtirib olishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Til materialining tarkibiy qismi hisoblangan grammatika bo'yicha ilmiy manbalarda turli fikr va mulohazalar bayon qilingan. Grammatikani (1) tilning grammatik qurilishi, (2) tilning grammatik qurilishi haqidagi fan; (3) amaliy grammatikani, ya'ni, konkret tilga oid grammatik qoidalar, grammatik hodisalar tavsifi, grammatik ko'nikma va malakalar deb qarovchilar mavjud [4].

Nemis lingvodidakti G.Xelbingning fikricha, uch turdagi grammatikani o'zaro farqlash lozim (1): muayyan tilga xos bo'lgan grammatik hodisalar majmuyi (2), tildagi grammatik qoidalar majmuyining ilmiy tahlili, ya'ni, grammatikaning tilshunoslik fanida aks etishi (3), nutqiy muloqot chog'ida qo'llanadigan qoidalar tizimi.

Professor J.J.Jalolov grammatikaga (1) nutqning grammatik tomoni – tilning gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuvda uchraydigan grammatik hodisalar (2), til hodisalarini ta'riflovchi mavhumotlar deb ta'rif bergan [2;149–170-b.].

Chet til o'qitish metodikasi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, grammatikaga turlicha munosabatda bo'lib kelinganligini kuzatishimiz mumkin. Grammatik-tarjima metodi tarafdorlari til o'rganish deganda, grammatikani o'zlashtirishni tushunganlar. To'g'ri metodda esa grammatik qoidalarni o'rgatishni, umuman, rad etilgan. Ushbu metod tarafdorlari o'qitish chog'ida ona tilini chetlab o'tib, chet til so'zi bilan predmet orasida bevosita aloqa (assotsiatsiya) o'rnatishga harakat qilganlar. Ongli-qiyosiy metod tarafdorlari grammatikani o'rgatishga jiddiy e'tibor berganlar. Grammatika alohida aspekt sifatida o'rganilgan. Grammatik qoidalar sistemali ravishda o'rganilgan. Hozirgi paytda grammatikaga nutqiy muloqotni ta'minlovchi vosita sifatida qaraladi.

Yuqori sinflarda ingliz tili grammatikasini o'rgatishning xususiyatlaridan biri uni ona tili grammatikasidan o'rganilgan bilimlarga asoslanishidir. Ona tilida grammatika til amaliy o'zlashtirilgandan keyin o'rgatilib, ko'p hollarda, nazariy va amaliy grammatikaning qorishmasidan iborat bo'ladi.

O'quvchilarning o'rganishlari zarur bo'lgan grammatik minimumlar umumta'lim maktablarining davlat ta'lim standardlari va o'quv dasturlarida keltirilgan bo'ladi. O'quv dasturiga ko'ra, yuqori sinflar, olmosh, zamonlar, modal fe'llar, sifat darajalari, predloglar, artikl, shart ergash gaplar, gerundi va infinitiv, majhul nisbat, iboralar kabi grammatik qoidalarni o'zlashtirishlari kerak bo'ladi, grammatik kommetensiyalarini to'laqonli rivojlantirish va malakaga ega bo'lishlari uchun darsliklarida keltirilgan mashqlar esa to'liq talabga mos keladi.

Grammatika sohasidagi eng dolzarb masalalardan biri grammatik ko'nikmalarni shakllantirishdir. Grammatik hodisalarni nutq faoliyati turlarida erkin qo'llay oladigan bo'lishlari uchun o'quvchilarda gram-

matik koʻnikmalarni shakllantirish talab etiladi. Grammatik koʻnikma deganda, nutqda morfologik-sintaktik hodisalarni avtomatlashgan tarzda qoʻllashni va tanib olishni ta'minlovchi amallar tushuniladi.

Grammatik koʻnikmalarni shakllantirish taqdimot, mashq qilish, qoʻllash bosqichlaridan oʻtadi. Taqdimot bosqichida yangi grammatik birlikni tanishtirish (nutq namunasida taqdim etish), oʻrni kelganda, ularni tushuntirish va dastlabki grammatik amallarni bajarish nazarda tutiladi. Mashqlarni bajarish bosqichida e'tibor grammatik koʻnikmani hosil qilishga qaratiladi. Grammatik hodisani nutq faoliyati turlarida qoʻllash bosqichida grammatik koʻnikmalarning malakaga aylanishi ustida ish olib boriladi.

Grammatik materiallarni taqdim etishda induktiv va deduktiv usullardan foydalaniladi. Induktiv usuldagi taqdimotda, avval, misollar beriladi, keyin, qoidaga oʻtiladi. Deduktivda esa qoida (yoki nutq namunasi) berilib, soʻngra misollarda mashq qilinadi. U yoki bu usulni tanlashda quyidagi metodik omillar hisobga olinadi: (1) grammatik hodisaning tabiati, shaklning oʻxshashligi, ma'noning oson ochilishi induktiv usuldan foydalanishni taqozo etadi. Masalan, sifatlarning ingliz tilidagi qiyosiy va orttirma darajalarining yasalishidagi aniq belgilarning mavjudligi induksiyani talab etadi (2), oʻxshashlik induksiyani, tafovut esa deduksiyani taqozo etadi (3), fe'l zamonlarining birini oldin oʻzlashtirilishi keyingisiga zamin boʻladi va h.k. (4), yangi hodisa mikrobirliklarini turli usullarda oʻrganish mumkin. Masalan, fe'l zamonlarining yasalishi va ma'nosi induksiyada, qoʻllanishi deduksiyada yoki aksincha, taqdim etish mumkin.

Tillardagi oʻxshashlik va tafovutlarni bilib olish oʻquvchilarni bilim saviyasini oshishi, xotira va mantiqiy tafakkurini rivojlanishi, ularning lingvistik saviyasini koʻtarish uchun xizmat qiladi.

Grammatikani har qanday tilni oʻzlashtirish chogʻida muhim deb hisoblayiz. Hatto, ingliz tilinining oʻqish, yozish, tinglab tushunish va gapirish qismlarini oʻrganish chogʻida ham bunga ishonch hosil qilishimiz mumkin. Tilni oʻrganish chogʻida grammatikani kommunikativ yondashuv asosida oʻrganishni ham qiziqarli ham samarali usul deb hisoblaymiz. Tadqiqotimizning endigi qismida grammatikani kommunikativ yondashuv asosida rivojlantirish haqida fikr yuritishni lozim topdik.

Kommunikativ yondashuv orqali grammatik kompetensiyani rivojlantirish oʻquvchilarga grammatikadan faqat qoidalarni yodlashdan koʻra, hayotiy muloqotda samarali foydalanishga imkon berishga qaratilgan. Kommunikativ yondashuv grammatik oʻqitishni mazmunli, interaktiv faoliyat bilan birlashtiradi, oʻquvchilarga ogʻzaki va yozma muloqot uchun grammatik tuzilmalarni tushunish va qoʻllashda yordam beradi.

Grammatika qoidalarni yodlash yoki oʻrganish bilan yuza chiqmaydi, uni amaliyotga tatbiq etish lozim. Bu esa kommikatsiyani talab qiladigan yoki oʻz ichiga olgan mashqlarni bajarish orqali erishiladi. Mashqlar haqiqiy hayot situatsiyalariga oʻxshash boʻlishi, oʻquvchilarni turli vaziyatlarda qoʻllashga undashi lozim. Bu yoʻnalish orqali darslar interavtiv tarzda, ya'ni, urgʻu oʻquvchilarga berilgan holda, juftliklarda ishlash, guruh bilan munozara, kommunikativ oʻyinlar tarzida olib borilishi lozim, bunda ham grammatik qoidalar oʻzlashtiriladi va nutq ravonligiga erishiladi [5].

Grammatik kompetensiyani quydagi kommunikativ mashgʻulotlar va usullar yordamida rivojlantirish mumkin. Rolli oʻyinlar, axborot boʻshligʻi mashqlari va muammolarni hal qilish vazifalari kabi mashgʻulotlar oʻquvchilardan aniq natijalarga erishish uchun grammatikadan foydalanishni talab qiladi.

Texnologiyalardan foydalanish: interaktiv platformalar va videomateriallar kabi raqamli vositalar va multimedia resurslari, kontekstli grammatika amaliyotini va darhol fikr-mulohazalarni ta'minlaydi.

**Xulosa.** Kommunikativ yondashuv grammatik koʻrsatmalarni mazmunli, interaktiv muloqotga kiritish orqali grammatik kompetensiyani rivojlantiradi. Ushbu usul nafaqat grammatik aniqlikni yaxshilaydi, balki oʻquvchilarning grammatikadan real vaziyatlarda samarali foydalanishlarini ta'minlaydi, bu ham tilni bilish, ham professional muloqot qobiliyatlarini qoʻllab-quvvatlaydi. Yuqori sinf oʻquvchilarining grammatik kompetensiylarini rivojlantirishda kommunikativ yondashuvning oʻrni beqiyos ekanligiga yuqoridagi keltirilgan fikr asos boʻla oladi. Bundan tashqari, grammatikani amaliyotga qoʻllash grammatik kompetensiyani egallashda samarali usul boʻlib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

(1). Umumiy oʻrta ta'limning oʻquv dasturi. 2022-2-23.

(2). Жалолов Ж.Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. Чет тиллар олий ўқув юрт (факультет)лари талабалари учун дарслик, Т., "Ўқитувчи", 1996, 368-бет.

(3). Мисиров С.А. Касб-ҳунар коллежларида тилга оид ўқув предметларини ўргатишда амалий мақсад тавсифига доир. "Педагогик таълим", 2006, 3-сон, 99–100-бетлар.

(4). Общая методика обучения иностранным языкам в средней школе/Под ред. А.А.Миролюбова, И.В. Рахманова, В.С.Цетлин. М., "Просвещение", 1967, 450 с.